

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQCHILIK IJODI TASNIFI **(Xalfachilik san’ati)**

Panjiyev Qurbonniyo Berdievich – Xalqaro Nordik universiteti “Musiqi ta’limi” kafedasi mudiri, pedagoigka fanlari doktori (DSc), professor v.b., etnomusiqashunos

Xalfa qo‘shiqlari Xorazm vohasida asosan ayollar tomonidan ijro etiladigan san’atdir. Aynan ushbu xalqa qo‘shiqlari oddiy mehnatkash aholining ayniqsa, ayollarning hayoti, dardi-alami, xasrati, iztiroblari, kundalik turmush tarzi musiqiy ohanglarda gavdalanirilib, sodda, ravon til bilan tarannum etilgan an’anaviy musiqiy ijodiyot sifatida gavdalanadi.

Garmonni avval sozchi¹ san’atkorlar, laparchi ijrochilari, ansambl sifatida kuylaydigan yakkaxon xonandalar ijodiyotida qo‘llashgan, keyinchalik, esa garmon xalfalar ijodida yetakchi o‘rin egalladi. 1936 yilda Xivada garmonchi qizlar ansambli tuzildi uni tuzishda O‘zbekiston xalq artisti Gavharxonim Rahimova Toshkentdan kelib tashabbus ko‘rsatdi. Unda Onajon Sabirova (Anash xalfa) va Madraxim Sheroziylar hamkorlik qiladilar. Xalfachi qizlar ansambli 1939 yilda Toshkent va Respublikamiz bo‘ylab gastrol safarda bo‘ldi. Bu ansamblida Onajon Sabirova (Anash xalfa) Saraxon Ollaberganova, Roviya Otajanova, Reyima Xakimova, O‘g‘iljon Masharipova, Poshshaxon Matchanova kabi iste’dodli xalfalar xizmati katta. Bundan 50 yil keyin Gavharxonim Rahimova tashabbusi bilan Xivaga kelib, Ozod Zaripov rahbarligidagi Xiva shahar musiqa maktabida garmonchi qizlar ansambli tashkil qilindi. Xalfa san’atining o‘ziga xos qirralari zamon talablariga muvofiq shakllangan va rivojlangan. Xorazm vohasida ilgari beri davom etib kelayotgan an’anaga muvofiq xalfalar ijod qilganlar. Ular ustoz shogird uslubida o‘z ijodlarini biladigan qo‘shiq va dostonlarni shogirdlariga o‘rgatganlar.

Xorazmda xalfachi ayollar ijro jarayoni bo‘yicha bir qator toifalari mavjud. Jumladan, musiqiy cholg‘ular jo‘rligisiz doston, mumtoz adabiyot vakillarining nasihatimiz she‘rlarini diklasyon tarzda, qiroat shaklida o‘qiydigan xalfalar toifalari mavjud. Qolaversa, faqat soz, jumladan, garmon, doyra chalib turli xush ovoz mumtoz musiqa asarlarini kuy holatda ijro etadigan xalfalar ham mavjud. Yana bir toifadagilari esa dostonlardan parchalar, terma va nasihatimiz qo‘shiq va ashulalarni tor, dutor, garmon, doyra, qayroq, qo‘sh nay cholg‘ulari ijrosida kuylaydigan ijrochi xalfalar guruhi ham el orasida keng tarqalgan. Shu bois bo‘lsa kerak, tadqiqotchilar tomonidan Xorazm xalfachilari o‘z mohiyatiga ko‘ra uch guruhga ajratilgan holda tasnif etish tavsiya etilgan.

- xonanda xalfalar;
- soz (cholg‘u) ijrochi xalfalar;
- ijodkor shoira xalfalar.

Birinchi guruh ijodkorlari tarkibida shoira, garmon cholg‘usini mohir ijrochisi, jarangdor ovoz sohibi, qo‘shiqchi va ashulachi, doyrachi va raqqosa bilan birgalikda ansambl bo‘lib, ular to‘liq shakllangan ijrochi xalfalardan

¹ Cholg‘u ijrochisi Xorazmda shu atama bilan qo‘llaniladi.

shakllantirilgandir. Ijodkor shoira xalfalar guruhiga Shukur Ollaqulixon qizi (1857-1832), Xonim suvchi Saidamat qizi (1858-1926), Onabibi Otajanova (Ojiza) (1899-1952), Onajon Sobirova (Anash xalifa) (1885-1952), xazaraspalik Saodat xalifa Xudayberganova (1905-1972), Mohira Sabirova (1909-1966), Roziya xalifa Matniyoz qizi (1899-1951), Rohatoy Xo‘janियazova (1955-2010) kabilar nomini tilga olish joizdir. Bu kabi xalfalar xalq dostonlarining to‘la matnini yoddan bilganlar va ularni musiqa jo‘rligida maromiga yetkazib kuylaganlar. Shu bilan birga badiiy ijod bilan ham shug‘ullanib, ajoyib she‘rlar ham yaratganlar.

Anabibi Otajanova (Ojiza tahallusi bilan elga tanilgan) mashhur xonanda bo‘lishi bilan birga iste’dodli shoira ham edi. U xalq qo‘shiqlariga hamohang bo‘lgan ko‘plab qo‘shiqlar ijod qildi va zo‘r mahorat bilan kuyga solib xalq orasiga yoydi. Ojizaning “Uyolaman”, “Targ‘uncha”, “Galmadi-galmadi”, “Tuninay”, “Ey dilbarim” kabi qo‘shiqlar hozirgi davrda ham halfalar tomonidan ijro qilinadi.

Ana shunday xonanda, shoira, ijodkor xalfalardan Rohatoy Xo‘janियazova XX asr oxiri XXI asr boshlarida ijod qilgan mashhur xalifa bo‘lib, uning “Sabr ayla ko‘nglim mani”, “Armonim yoqdir mani” kabi she‘riy to‘plamlari bilan elga ma‘lum va mashhur bo‘lgan. U “Mustaqil O‘zbekiston”, “Do‘stlarim”, “Onajon” kabi she‘rlariga kuy bastalab ijro qilgan. Shuningdek, ustoz xalfalarning qo‘shiqlari va oshiqlik dostonlaridan parchalar kuylagan.

Yana bir guruh xalfalar asosan “garmon” cholg‘uchisi va ashulachi sifatida o‘rin egallasa uning yonida albatta doyrachi va raqqosa ham bir guruh bo‘lib ansambl tashkil qilishadi. Ko‘pincha xalfalar guruh bo‘lib o‘zlari ijodiy yondashganlar. Ular dasturlarini turli mavzudagi qo‘shiqlar, dostonlardan parchalar va nasihatgo‘y lirik mazmundagi keng diapazonli lirik qo‘shiqlar asosida tashkil etganlar. Nazira Sobirova, Sarajon Ollaberganova, Sorabibi Axmedova, Sorabibi Jumaniyozova, Ullibibi Boyjanova, kabi xalfalar kiradi. Ular dostonlar va laparlarning to‘la matnini yoddan yoki kitob vositasida o‘qish bilan shug‘ullanmasdan faqat xalq qo‘shiqlari va doston tarkibidagi ayrim sheorlarni kuyga solib maromiga yetkazib kuylashgan. Ular ma‘lum ansamblga uyushgan garmonchi, doyrachi va raqqosa bo‘lib, to‘y, bayramlarda xizmat qilishgan.

Xalifa janriga xos bo‘lgan ijodkor xalfalar va ijrochi sozanda xalfalar to‘y va ziyofatlarda xizmat qilsalar, diniy mavzudagi kitob va dostonlarni kuylovchi xalfalar to‘ylarda, azalarda, marakalarda ham ishtirok etganlar va hozirgi davrgacha ana shunday yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar.

Keyingi davrlarda nasihatimiz, diniy mavzudagi asar yoki turkum dostonlarni kuylovchi xalifa ayollar ham mazkur ijodiyotning o‘ziga xos tarkibini tashkil etadi. Ular qatorida Suna Eshmatova, Niyozjon Musaeva kabi xalfalar juda zehni baland diniy mavzularda erkin mushoxada qila oladigan chuqur bilimga ega xalfalar bo‘lgan.

Sozanda shoira xalfalar guruhi ham asosan oshiqlik dostonlardagi musiqiy asarlarni ijro etishgan. Xorazmda yashagan mashhur xalfalardan Xonim Suvchi, Ojiza, Onajon xalifa kabi xalfalar “Oshiq G‘arib va Shoxsanam”, “Asli va Karam”, “Oshiq Maxmud”, “Oshiq Alband”, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga oid ayrim dostonlarni tugal yoddan bilganlar va maromiga yetkazib kuylaganlar.

Xorazm xalfachiligida ham boshqa mahalliy uslublar singari ustoz-shogird an'anasi o'ta muhim ahamiyat kasb etgan. Eski maktablarda ayniqasa, XVIII asr o'rtalarida "xat-savod" chiqargan, bilimga ixlosmand qizlar taniqli xalfalarga bir necha yillar davomida shogird tushganlar. Ular shogirdlik davrida ustozlaridan to'y va boshqa marakalarda aytiladigan qo'shiq, doston va g'azallardan o'rganganlar. Soz, garmon cholg'usini ijro etishda shogirdlar ustozlarini ijro yo'nalishlari va uslubini to'la egallashlari lozim bo'lgan. Xalfalar shogirdlaridan katta talabchanliklar bilan an'analariga rioya qilgan holda an'alarini davom ettirishgan. Ustozlari ularni to'y va marosimlarga ergashtirib olib borgan, birga o'tirib birga kuylagan yoki raqsga tushirgan. Ustoz xalfa ba'zan shogirdining yakka o'ziga ham navbat berib qo'shiq ijro qildirgan, uni jamoatchilikni o'ziga jalb qila olish san'atiga alohida ahamiyat bergan.

So'nggi 170 yildan ortiq davr mobaynida o'zbek musiqa madaniyati rivojida xalfachilik san'ati yetakchi janrlardan biri bo'lib xizmat qilib keldi. Shubhasiz bu jarayonda ham ustoz-shogird an'anasi o'zining ang yaxshi vosita ekanligini ko'rsatdi. Shogirdlar ustozlaridan fotixa olib, xalfa nomiga sazavvor bo'lganlar, albatta, bu nomga musharraf bo'lgunga qadar bir qancha zahmatli mehnatlarni bosib o'tishga lozim bo'ldi. Shogird ustozidan fotixa olish uchun o'z uyiga davrining yetuk xalfalari hamda o'z ustozini chaqirib, o'sha ustozlar oldida o'rgangan doston, terma, qo'shiqlarini ijro qilib berganlar. Ularni tanlovidan o'tgan hamda unga ko'p yillar ustozlik qilgan xalfani hurmatini joyiga qo'ygan shogird o'zi xalfa bo'lib, mustaqil to'y va ma'rakalarga qo'shiq aytishga, xotin-qizlarga o'z san'atini namoyish qilish huquqiga ega bo'lganlar. XVIII asr o'rtalariga qadar xalfalar faoliyati asosan uy ichkarisida bo'lgan, ular ko'pincha biror cholg'u asbobi yordamida emas, balki, ikki piyolani bir-biriga urib, "o'ymoq" ya'ni angishvonani piyolaga, likobchaga urib, ba'zi paytlarda qoshiqlarni qo'llab, ular yordamida o'zlariga jo'rnavoz topgan. Ushbu jo'rnavoz vositalar yordamida usul berishgan va usulga jo'r bo'lib kuylaganlar.

Xalfalarning qo'ng'iroqdek jarangdor va mayin ovozi piyolaning nozik va o'ynoqi jaranggi bilan qo'shib, o'ziga xos musiqiylik kashf etgan. Ular asosan faqat ayollar qatnashadigan ma'rakalarning fayzi, qizlar majlisi va ayollar bazmining malikalari, to'y va ma'rakalarda quvonchga-quvonch qo'shib, o'ynoqi kuylar, nafis raqslar, dilbar ashulalar bilan qalblarda ezgu xis-tuyg'ularni shakllantirganlar. Xalfa ijodkorlari bu vohadagi to'y, sayl va aza marosimlarida qatnashgan, xotin-qizlar davrasini mazmunli, ibratli va quvnoq o'tishi ular faoliyati bilan bog'lik bo'lgan.

Xorazmda ayol ashulachilar "xalfa" deb yuritilsa ham ular faqat ashula aytish bilan cheklanmaganlar. Ular xonandalik va cholg'u san'atining ko'p jihatlaridan xabardor bo'lganlar. Xalfachilik san'atini o'rganish ham o'ziga xos maktabga ega bo'lgan, ustoz-shogird an'anasi hozirgi davrgacha saqlanib kelmoqda. Ustoz xalfa ijrochilarining ijro uslubi, kuylash yo'li, repertuari shogirdlar tomonidan puxta o'zlashtirgandan keyin ular mustaqil ijod qilishgan va san'atkorlar orasida tan olingan.

Xorazmda ma'lum va mashxur bo'lib kelgan xalfa ijodkorlari XIX-asrning boshlarigacha faqat xotin-qizlar orasida kuylab kelishgan va xalq xurmatini

qozonganlar. XIX asrning oxiri XX asrda kelib, musiqa asboblaridan garmonning qo‘shilishi bilan ularning ijodi yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. M.Yusupov va J.Qobulniyozovlarning ta‘kidlashicha Xonimjon xalifa Saidamat qizi 1895 yildan boshlab garmon chalib, to‘y va boshqa xotin-qizlar bazmlarida kuylab kelgan. Mashhur xalfalardan Onajon xalifa Sobirova Anabibi kori (Ojiza taxallusi bilan ijod etgan shoira ijodkor xalifa) o‘zlaridan oldin ijod etgan va faoliyat ko‘rsatib kelgan ustoz ijodkorlarining ijodlarini davom ettirgan elga mashhur xalfalardan bo‘ladilar. Hozirgi kunda Xorazm viloyatining asosan Xiva, Urganch shaharlarida va tumonlarda ijod qilib kelayotgan xalfalar istiqomat qilmoqdalar. Xususan Xiva shahrida xalfachilik san‘atini davom ettirib kelayotgan xalfalardan Ra‘no Ollaberganova, Dilbar Qalandarova, Poshshajon Ibragimova, Zilfiya va Fazilat Shermetovalar, Nodira Bog‘ibekova, Zumrat Madrahimova, Dilorom Qurbanniyazova, Karomat Ibrahimova, “Nihol” sovrindorlari Sarvinoz Quryazova va Rayhona Jumaniyazova, Sayyora Otaeva, Shirin Jumaniyazova, Umida Jumaniyazova, Dilorom Jabbarganova, Dilbar Devanova ham Zulayho Saidova. Urganch shahri va tumonlarda ijod qilayotgan xalfalar Xurshida Eshniyazova, Iroda Iskandarova, Sanobar Qlicheva, Dilbar Bekturdieva, Feruza Fayzullaeva, Guli Qo‘shaqovalar nomini faxr bilan tilga olish mumkin².

Uchinchi guruh diniy mavzudagi dostonlarni mungli ovozda kuylab aytadigan Shukuroy xalifa xoji ona, Zumrad Abdiyazova, Hajarbibi Jumaniyazova, Oybibi Oyjanova, To‘xtajon momo kabi xalfalar Xiva shahrida yashab to‘y va ma‘rosimlarda ijrochilik mahoratini namoyon etmoqdalar.

Ma‘lumki, nafaqat o‘zbek xalq qo‘shiqlari, shu jumladan Xorazm xalq qo‘shiqlari ham uzoq o‘tmishdan bizgacha yetib kelgan ajdodlarimizning lirik shakldagi tarixiy musiqiy merosi hisoblanadi. Xorazm qo‘shiqlarining mazmuni voqelikning lirik havosini badiiy o‘zlashtirib, yuz bergan xodisa, voqealarga munosabat his-tuyg‘u va kayfiyat orqali ifodalanishi bilan o‘zbek milliy musiqa ijodida o‘ziga xos ko‘rinish va ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Xorazm qo‘shiqlarining kuy va she‘riy matnida gavdalanayotgan obraz, o‘zining motiv kompozitsion yechimiga egaligi, kuy-ohangdagi ritmik koloritlar o‘zining juda qadimiyligi bilan milliy an‘analarga sug‘orilganligini ko‘rish mumkin. Unda xalqning o‘y-fikri, his-hayajoni bilan she‘riyat obrazlari mujassam bo‘lganligi va ohanglar sadosini keltirib chiqarganligini ko‘rish mumkin. Ushbu qo‘shiqlardagi fikr, g‘oya, maqsad, vazifa, xis-tuyg‘ular Xorazm aholisining turmush tarzi, kundalik hayoti, yashash tarzi va sharoiti, ijtimoiy-maishiy hayoti, dunyoqarashi bilan bog‘liq mujassam bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Qolaversa, Xorazm qo‘shiqlarining kuy-ohang va she‘riy matnida aholining musiqiy merosini islom dini aqidalari bilan sug‘orilganligini, o‘tmishim tajribalaridan o‘tgan nasihatimiz istaklar bilan hamohang bo‘lganligini kuzatish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1.Ibrohimov O.A. “O‘zbek xalq musiqa ijodi” (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B. 62

² Sheroziylar sulolasi davomchisi “Targ‘uncha”, “Xiva dutori” qo‘shiqlar to‘plami muallifi Z. Madraximov, musiqashunos G. Baltaeva xalifa qo‘shiqlari xaqida

2. Ibrohimov O.A. “Maqpm va makon” Movaraunnahr, Toshkent 1996-yil.
- 3.Karamatov F.M O’zbek xalq musiqasi merosi. XX-asr. Terma, yalla, qarsak, kirish maqolasi. Toshkent G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985. B.-2-23.
- 4.Panjiyev Q.B. Salimova D. Vokal musiqa pedagogikasining asosiy tamoyillari va uslublari. Metodik qo’llanma. – Toshkent. 2018y. B.86.
- 5.Panjiyev Q.B. O’zbek xalq qo’shiqchilik ijodiyoti. O’quv qo’llanma. Toshkent. 2022. B. 210.